

HARBIY XIZMATCHILARDA LIDERLIKNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK FENOMENI

Djabbarov Anvar Axrorovich –

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
kichik mutaxassislar tayyorlash markazi boshlig'i,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), polkovnik*

Annotatsiya: *Mazkur maqola harbiy xizmatchilarda liderlikning ijtimoiy-psixologik fenomeniga bag'ishlangan. Maqolada harbiy xizmat faoliyati, harbiy xizmatchi shaxsi, harbiy xizmat talabi, harbiy xizmatchilarda liderlik sifatlarining psixologik asoslari va uning o'ziga xosliklari keng yoritilgan. Keltirilgan mulohazalar va tahlillar adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan manbalar asosida amalga oshirilgan.*

Kalit so'zlar: *komandir, harbiy xizmat, psixologik tamoyil, harbiy xizmatchi shaxsi, armiya, liderlik sifati kasb, lider, psixologik tayyorgarlik, mudofaa.*

Аннотация: *Данная статья посвящена социально-психологическому феномену лидерства у военнослужащих. В статье широко освещается деятельность военнослужащего, личность военнослужащего, требование военной службы, психологические основы лидерских качеств у военнослужащих и ее специфика. Приведенные соображения и анализ были сделаны на основе источников, перечисленных в литературе.*

Ключевые слова: *командир, военная служба, психологическое начало, личность военнослужащего, армия, лидерские качества профессия, руководитель, психологическая подготовка, оборона.*

Annotation: *This article is devoted to the socio-psychological phenomenon of leadership among military personnel. The article extensively covers the activities of a serviceman, the personality of a serviceman, the requirement of military service, the psychological foundations of leadership qualities in military personnel and its specifics. The above considerations and analysis were made based on the sources listed in the literature.*

Key words: *commander, military service, psychological origin, personality of a serviceman, army, leadership qualities, profession, leader, psychological training, defense*

Harbiy faoliyat har doim harbiy xizmatchilardan liderlik, o'ziga ishonch, mustaqillik, g'ayratlilik, aqliy yetuklik, kasbiy kompetentlik, qat'iylik, mardlik, jasurlik kabi xususiyatlarni talab etishi tabiiy. Bundan tashqari, liderlik fenomeni harbiy topshiriq va vazifalarni o'z vaqtida bajarish, qo'l ostidagi harbiy xizmatchilarni mohirona boshqarish, jamoa uchun doim namunali boshliq bo'la olish, har qanday

murakkab sharoitlarda vaziyatdan chiqib keta olish, topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish holatini to'g'ri tashkil eta olish kabilarni ta'minlovchi harbiy xizmatchining psixologik sifatlaridan biridir.

Ma'lumki, lider shaxslar faoliyatini o'rganish hozirgi kunda qator ijtimoiy fanlarning tadqiqot predmetiga aylangan. Liderlik fenomeni jamiyatning turli sohalarida sodir bo'lib, unda jamoaviy faollikning yetakchi shaxsiga xos ko'plab psixologik xususiyatlari mavjud. Liderlik – bu guruh a'zolari faoliyati va ularning o'zaro aloqasi natijasida vujudga keladigan shaxsiga xos tashkiliy xususiyatlar yig'indisidir. Liderlikni faqat bir shaxs harakati bilan tavsiflash mumkin emas. Shuning uchun, liderlik sifatlari guruhlarning dinamik jarayonlariga tegishli hodisa hisoblanadi.

Yevropalik tadqiqotchi D.K.Daylning ta'kidlashicha, Liderlik hamma uchun ham xos bo'lgan sifat emas, uning zamirida o'ziga xos psixologik qobiliyatlar, individual-psixologik sifatlar, kasbiy kompetensiyalar, ijtimoiy-psixologik sifatlar, asab tizimining o'ziga xos xususiyatlari kabilarni mujassamdir. Liderlik sifati ko'p qirrali faoliyatdir. Uni tushuntirishda quyidagi ikkita asosiy yo'nalish ajratiladi[1,96]:

liderlik bu – aniq vazifalarga e'tibor qaratish ya'ni motivatsiya, tashkilotchilik, ko'rsatma berish, to'g'ri qarorlar qabul qilish va uni ijrosini ta'minlash, ish hajmini to'g'ri taqsimlash va hokazo;

liderlik bu – jamoani saqlab qolishga va uni rivojlantirishga intilish, o'z qo'l ostidagilarga e'tibor berish, o'ziga ishonch, jamoasini rag'batlantira olish, insonlarni o'z shaxsiy maqsadlariga erishishiga ko'maklashish, o'z ishidan qoniqish, o'zini o'zi anglash, o'ziga ishonch, muammolarni o'ylash va hal qilishda faol ishtirok etish, shaxsiy munosabatlarda o'zaro hurmat va samimiylikka amal qilish kabi sifatlar majmuidir.

Aytish joizki, psixologiya fani sohalariga tegishli ko'plab tadqiqotlarda, liderlik fenomeni masalasida ko'plab ilmiy yondashuvlar, konsepsiyalar, ilmiy modellar ilmiy ishlab chiqilgan bo'lib, ularda liderlik va lider shaxslar xarakteristikasini tavsiflovchi, ko'plab ahamiyatga molik ma'lumotlar keltirilgan. Biroq, mahalliy tadqiqotlarda liderlik sifatlari shakllanishini asoslovchi, ayniqsa harbiy xizmatchilarda liderlik sifatlari shakllanishining psixologik jihatlari borasida deyarli tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Bizningcha, lider – bu guruh faoliyatida maksimal ta'sirga erishish uchun, psixologik ta'sirning barcha mexanizmlari va usullarini o'zida birlashtirgan individual harakatlar majmuidir.

Psixologiya sohasida o'zining ilmiy qarashlariga ega olim T.Shibutanining ta'kidlashicha, liderlik tushunchasini tavsiflashda yoki unga aloqador ma'lumotlarni tahlil etishda, fanlararo integratsiya holatini hisobga olish lozim. Chunki, ushbu tushuncha zamirida inson faoliyati va uning imkoniyatini baholovchi ko'plab xarakterologik xususiyatlar aks etgan[2, 96]. Haqiqatdan ham, ko'plab psixologik

adabiyotlarda rahbar va lider tushunchasining tavsifi borasida bahsbop mulohazalar mavjud. Ya'ni rahbar va lider o'rtasidagi farqlar nimada? Rahbarning liderdan farqi shuki, unda qonuniy vakolat bor, ya'ni vazifa berish va jazolash, rag'batlantirish, lider esa, bunday vakolatdan holi shaxslar hisoblanadi.

Tadqiqotchi N.V.Misen liderlikni ma'muriy, huquqiy va ijtimoiy vakolatlar asosida, guruhning ish faoliyatini boshqaruvchi hamda ularning motivatsiyasini oshiruvchi shaxs deb ta'riflaydi[3, 61]. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, liderlik taqsimlangan vazifalarni bajarishda boshqalardan faol, boshqalarni bajarishga undovchi yoki ularni yetaklovchi, guruh harakatlarini muvofiqlashtirib boruvchi shaxsdir.

Tadqiqotchi N.P.Belyatskiy liderlik sifatlarini tushuntirishda quyidagi psixologik jihatlarni ajaratadi[4, 89]:

lider asosan guruhdagi shaxslararo munosabatlarni tartibga soluvchi, jamoaning rasmiy munosabatlarni nazorat qiluvchi subyektdir;

liderlik bu mikro muhitda namoyon bo'ladigan va makro muhitning bir qismi bo'lgan butun bir ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi fenomendir;

liderlik o'z-o'zidan paydo bo'ladi, har qanday ijtimoiy guruhning rahbari tayinlanadi yoki saylanadi, lekin bu jarayon o'z-o'zidan emas, aksincha maqsadli, ijtimoiy tuzilishning turli elementlari nazorati ostida amalga oshiriladi;

liderlik fenomeni unchalik barqaror emas, rahbar nomzodligi ko'p jihatdan guruh kayfiyatiga bog'liq, liderlik esa, ancha barqaror hodisadir;

qo'l ostidagilarni boshqarish, rahbarlikdan farqli o'laroq, rahbarning qo'lida bo'lmagan va har xil xuquqiy sanksiyalardan yiroq jarayondir;

rahbar tomonidan qaror qabul qilish jarayoni ancha murakkab va ko'p mezonlarga asoslanadi, liderniki esa, bundan mustasno;

liderning faoliyati asosan kichik guruhda bo'lib, u yetakchi hisoblanadi, liderning faoliyat doirasi psixologik jihatdan kengroqdir.

Tadqiqotchi S.R.Kovining rasmiy mulohazalarida lider guruhda bo'lishi shart emas, rahbar esa, bunday sharoitlarda o'z joyida bo'lishi lozim[5, 246] deya, ta'rif bildirgan;

Demak, liderlik fenomenini bunday mazmunda tushuntirish unga tegishli ma'lumotlarni faqat ijtimoiy-psixologik jihatdan emas balki, boshqaruv psixologiyasi, tashkiliy psixologiya kabi sohalar bilan tushuntirishni nazarda tutadi. Chunki boshqaruv psixologiyasi bo'yicha qilingan ko'plab tadqiqotlarda, rahbar va liderlik fenomenlarining o'ziga xos ta'riflari va konseptual asoslari batafsil yoritilgan.

Sotsial psixologiyaning yetakchi olimlaridan biri D.Mayersning aytishicha, lider bu – boshqa odamlarga ta'sir o'tkaza oladigan, faoliyatda yuqori samaradorlikni ta'minlovchi, ishda muvaffaqiyatga erishishga hissa qo'shadigan shaxsdir. Shu bilan birga, lider guruhning ayrim a'zolarini rag'batlantiradi va boshqalardan farqli tarzda

o'zgartira oladi[6, 423]. Rahbar esa, yuqori ko'rish qobiliyatiga ega bo'lgan, boshqalarga ta'sir eta oladigan, o'z maqsadlariga birlashtira olgan shaxsdir.

Tadqiqotchi V.F.Ukolov o'zining "Boshqaruv nazariyasi" nomli darsligida liderlik tushunchasini quyidagi ta'riflar orqali tushuntirishga harakat qilgan[7, 55]:

lider bu – guruhdagi jarayonlarning markazida turuvchi shaxs;

lider bu – bir qator psixologik xususiyatlarga ega shaxs;

xatti-harakatlari bilan boshqalardan farq qiluvchi shaxs yoki uning xususiyatlarini bilib olish o'ta oson;

lider bu – maqsadga yoki natijaga doim intiluvchi shaxs, uning boshqaruv mahorati va rollari boshqalarnikidan ancha yuqori;

lider bu – qaysi jamoada bo'lmasin u, guruh a'zolari tomonidan doim qo'llab-quvvatlanuvchi shaxsdir.

lider – ishontirish qobiliyati yuqori bo'lgan va boshqalarni o'ziga ergashtira olgan harakatchan guruh a'zosi.

yetakchi shaxs ta'sir o'tkazish qobiliyatiga ega guruh a'zosi, u ko'pincha rahbarga yaqin bo'lgan insondir;

lider – boshqaruv ko'nikmalarini egallagan, jamoani norasmiy boqara oladigan jamoa a'zosi va hokazo.

Haqiqatan ham, liderlik muammosi nihoyatda ko'p qirrali bo'lib, unda ko'plab psixologik jihatlarni ajratish mumkin, ularning har biri o'ziga xos mohiyatni anglatishi tabiiydir.

Liderlik borasida yetakchi olim sanalgan A.V.Ravinoning yozishicha, liderlikda xuddi rahbar shaxsga xos bo'lgan faoliyat uslublari mavjud bo'lib, ularni quyidagilar sanaladi:

Avtoritar uslub – yagona markazlashgan kuchning namoyon bo'lish shakli bo'lib, unda faqat lider shaxs maqsadlari tan olinadi;

Diktatorlik uslubi – xodimlar jazolar tahdidi ostida qat'iy va individual buyruqlarni bajarishga majburdir;

Avtokratik uslub – yetakchi o'z ixtiyoriga ko'ra, keng vakolat berish huquqlariga ega ya'ni majburlash, buyruq berish va hokazo;

Byurokratik uslub – yetakchi shaxsning obro'si uning faol shaxs sifatidagi rasmiy mavqei bilan belgilanadi. Hamma yagona qoidalar, ko'rsatmalar va qoidalarga bo'ysunadi;

Patriarxal uslub – lider "oila boshlig'i" kabi qaror qabul qiladi boshqalar esa uni tez tan oladi.

Qo'llab-quvvatlovchi uslub – bunda liderning obro'si uning ijobiy shaxsiy fazilatlarini bilan belgilanadi, ya'ni unga barcha guruh a'zolari ishonishi lozim.

O'zbek olimlaridan professor E.G'.G'oziyev ta'kidlashicha, muayyan vazifalarda insonning individual xususiyatlari faoliyat va munosabatlar jarayoniga,

guruh a'zolari oldida turgan maqsad va vazifa talablariga mos kelsa, u lider hisoblanadi. Agar guruh oldidagi vazifa va talablar o'zgarasa, boshqa inson liderlikka o'tishi mumkin[8, 76]. Demak, jamoaviy faoliyatda masalan, dam olish vaqtlarida liderlik funksiyasini boshqa kishi ham olishi mumkin. Bundan tashqari, rasmiy lider – yuqori tashkilot rahbarlari tomonidan muayyan vazifalarni boshqarish uchun tayinlangan buyruq bilan belgilangan boshliqdir. Uning yuridik huquqlari, burch va vazifalari bo'ladi, deya ilmiy asosli ta'rif bergan.

Harbiy xizmatchilar tabiatan chidamli va o'ziga xos fikrlash uslubiga ega bo'lganligi bois, ulardagi shaxslilik sifatlarini tadqiq etish qiyinchligi ehtimoli yuqori ekanligidan dalolat beradi. Ya'ni, harbiy xizmatchi lider – bu boshqalarga ular o'ylaganidan ko'ra ko'proq narsani qilishga yordam beruvchi insondir. Bir harbiy xizmatchining liderlik sifatleri boshqa harbiy xizmatchilarning imkoniyatlarini ochishga keng yordam beradi.

Tadqiqotchi, general-polkovnik A.I.Timkoning aytishicha, harbiy jamoadagi liderlik sifatlariga ega harbiy xizmatchi, boshqa harbiy xizmatchilarga nima qilish kerakligini aytmaydi, balki u o'z jamoasi a'zolariga xizmat vazifalarini bajarishda katta ilhom beradi[9, 45]. Mazkur vaziyatda, bu kabi harbiy xizmatchi boshqa harbiy xizmatchilarni o'z ixtiyori bilan o'ziga ergashtira olishga qodir shaxs deb ta'riflash mumkin. Bunday sifatlar zamirida kasbiy bilimlar, shaxs qadriyatleri yo'nalishi, faoliyat ko'nikmalari va xatti-harakatlarning kombinatsiyasi hamda qator psixologik fazilatlar majmuasi yotadi. Harbiy sohadagi yetakchilik bu – bir guruh odamlarga o'z maqsadlariga erishishga yordam beradigan jarayondir.

Harbiy xizmatchilarda liderlik sifatleri shakllanishining psixologik omillari yuzasidan olingan tadqiqot natijalarida ma'lum bo'lishicha, harbiy xizmatchilarning ko'rsatkichleri o'ziga xos nisbatni keltirib chiqardi. M.I.Magura va M.V.Kurbatovalarning “Boshqaruvda liderlik uslubini o'rganish” testidan olingan natijalarga asosan, harbiy xizmatchilar standart normaga ko'ra, birinchi shkala avtoritar lider darajasi 6 – 3 ni tashkil etgan. Bu esa, avtoritar rahbar barcha ko'rsatmalarni ishchanlik ruhida, aniq-ravshan, keskinlik ohangida bo'ysinuvchilarga yetkazadi. Uning nutqi ham aniq va ravon doimo jiddiy tusda bo'ladi. Bunday rahbar o'z ish uslubleri, kelajak rejaleri, biror aniq ishni, o'z maqsadini qanday amalga oshirmoqchiligini odatda, jamoadan sir tutadi.

Avtoritar lider harbiy xizmatchilarda har bir harbiy jamoa a'zolarining qobiliyatleri, ishga munosabatlari, mavqelariga ko'ra tutgan o'rinleri haqida tasavvurlar borki, shunga ko'ra u har bir harbiy xizmatchining ish harakatlerini maksimal tarzda dasturlashtirib boradi. Bunday lider harbiy xizmatchilarda ishiga nisbatan shunday fidoiylik borki, ular o'zlarini ishsiz tasavvur qila olmaydi, ya'ni ish uning “butun vujudini qamrab olgan”. Shu sabab bo'lsa kerak, bunday harbiy xizmatchi rahbar har bir odamni uning kundalik ish faoliyatini, uning natijalarini juda

yaxshi biladi. Qolaversa, bunday harbiy xizmatchilar lider-tashkilotchi, lider-tashabbuskor, lider-erudit, jamoa hissiy-emotsional holatni boshqaruvchi lider, lider-bilag'on kabi ijobiy psixologik xususiyatlarga zga ekanliklari aniqlandi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida, harbiy xizmatchilarda liderlik sifatlarini shakllantirish uchun emotsional intellektni rivojlantirish, harbiy jamoada liderlik sifatleri uslubi, shaxslilik xususiyatlari va harbiy boshliqlarning shaxsiy sifatleri kabi psixologik xususiyatlarining shakllanishi muhim ekanligi aniqlandi. Undan tashqari, harbiy xizmatchilarda liderlik sifatleri ko'rsatkichlari darajasining psixologik jihatdan barqarorligi, jamoada liderlik sifatlarining yuqoriligi, emotsional-intellektual xususiyatlarning shakllanganligi, jamoadagi lider shaxsiy xususiyatlari va shaxslilik xususiyatlarining barqarorligi, kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan omillarning shakllanganligi harbiy xizmatchilarda liderlik sifatleri imkoniyatlarini oshirishi o'ziga xos asos sifatida xizmat qilishi ehtimoldan holi emas.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilarda liderlik sifatlarini shakllantirishda "emotsional bilimdonlik", "o'z emotsiyalarini boshqarish", "empatiya", "ijtimoiy-axloqiy yetuklik", "ma'naviy yetuklik", "emotsional yetuklik", "ijtimoiy intellekt", "jamoada yetakchilik" va "o'zgalar kechinmalarini sezuvchi" kabi asosiy psixologik omillar ijobiy ta'sir ko'rsatganligi ma'lum bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Дайл Д.К., Трансформирующее действительность лидерство / Д.Дайл, Дж.Канджеми, К.Ковальски // Психология. Журнал высшей школы экономики. 2004. Т. 1. - № 1. – С 96 -109.
2. Шибутани Т., Социальная психология. Пер. с англ. / Т. Шибутани. – Ростов н/д: Изд-во.«Феникс», 1998 – С 96.
3. Мысин Н.В., Теория социального управления. – СПб., Сев. зап. Акад. гос. служб. 1998. – С 61.
4. Бельяцкий Н.П., Основы лидерства: учеб. / Н.П.Бельяцкий. – Минск: БГЭУ, 2006. – С 89.
5. Кови С.Р., Семь навыков высокоэффективных людей. Мощные инструменты развития личности: пер. с англ./ С.Р.Кови. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2006. – С 246.
6. Майерс Д., Социальная психология / Д.Майерс. – 7-е изд. - СПб.: Питер, 2005. – С 423.
7. Уколов В.Ф., Теория управления. Учеб.для вузов / В.Ф.Уколов, А.М.Масс, И.К.Быстряков. 2-е изд., доп. - М.: ЗАО Экономика, 2004. – С 55.
8. G'oziyev E.G'., Sotsial psixologiya. T:, Universitet – 2010. – 76 B.
9. Тымко А.И., Сплочение воинского коллектива, пособие для офицеров пограничных застав / под ред. генерал-полковника Тымко А.И. М.: Граница, 1996. – С 45.